



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI QUMQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Qumqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston shoh ko‘chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876) 46-52-511, qumhok@exat.uz

2021 - yil 24 - dekabr

282-8-114-Q/21

Qumqo‘rg‘on tuman hokimligi

**Qumqo‘rg‘on tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish
bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011 - yil 4 - apreldagi 101-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,25-moddasiga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi (J.Boboyev) :

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me‘yorlariga qat‘iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta‘minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer

uchastkasi ajratishni yer to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Qurbonov) hamda qabristonlarning ma'muriyati:

xizmatlar uchun qat'iy belgilangan tariflar bo'yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko'rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo'lgan inshootlarni o'rnatish, ob'ektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qaror "Qumqo'rg'on sadosi" (R.Mengziyayeva) gazetasida rasman e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga (N.Jumayeva) joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari N.Allanazarov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими



Gapparov R. B.

Қумқўрғон туман ҳокимининг
2021 йил 24 декабрдаги
282-8-114-Q/21-сон қарорига
1-илова

Қумқўрғон туманидаги қабристонларда дафн этиш хизматларини кўрсатиш

бо'йича тарифлар миқдори со'м

№	Хизмат тури	О'лчов бirligi	Туман	Туман
1.	Go'r qazish	1 o'ringa	Bepul	Bepul
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o'ringa	Bepul	Bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Bepul	Bepul
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o'rin/kunga	Bepul	Bepul

*Maxallalarda narxlar tafovut qilishi mumkin, shu sababli ustunlar soni ikkita.